**“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI**

06. Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar

| | | |
|---|---|---|
| 1. | **EMITENTNING NOMI** | |
| | To‘liq: | “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati |
| | Qisqartirilgan: | “NKMK” AJ |
| | Birja tikerining nomi:* | Mavjud emas |
| 2. | **ALOQA MA’LUMOTLARI** | |
| | Joylashgan eri: | 210100, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy |
| | Pochta manzili: | 210100, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy |
| | Elektron pochta manzili:* | info@ngmk.uz |
| | Rasmiy veb-sayti:* | www.ngmk.uz |
| 3. | **MUHIM FAKT TO‘G‘RISIDA AXBOROT** | |
| | Muhim faktning raqami: | 06 |
| | Muhim faktning nomi: | Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar |
| | Yig‘ilish turi: | Kuzatuv kengashi yig‘ilishi |
| | Yig‘ilish o‘tkazish sanasi: | 2024-yil 4-oktabr |
| | Yig‘ilish bayonnomasi tuzilgan sana: | 2024-yil 4 oktabr |
| | Yig‘ilish o‘tkazilgan joy: | Toshkent shahri |
| | Yig‘ilish kvorumi: | 78% |

| № | Ovoz berishga qo‘yilgan masalalar | Ovoz berish yakunlari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Yoqlash | | Qarshi | | betaraflar | |
| | | % | soni | % | soni | % | soni |
| 1 | “NKMK” AJ tomonidan xalqaro kapital bozorlarida xalqaro obligatsiyalarni muomalaga chiqarish va joylashtirish asosiy shartlarini tasdiqlash. | 100 | 7 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 2 | Xalqaro obligatsiyalarni chiqarish va ularni joylashtirish bilan bog‘liq hujjatlarni rasmiylashtirishni amalga oshirish bo‘yicha. | 100 | 7 | 0 | 0 | 0 | 0 |

Yig‘ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to‘liq bayoni:

1

1.1. “NKMK” AJ tomonidan xalqaro obligatsiyalarni xalqaro kapital bozorlarida tashkillashtiruvchi banklar tomonidan taqdim etilgan tavsiyalarga asosan hamda belgilangan qoidalarga muvofiq qo‘yidagi shartlarda chiqarilishi (emissiya qilinishi) va joylashtirilishini tasdiqlansin:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1.** | Emissiya hajmi | 1 mlrd AQSh dollari miqdorida (har biri 500 mln AQSh dollariga teng 2 ta transh) | |
| **2.** | Emissiya valyutasi | AQSh dollarida | |
| **3.** | So‘ndirish muddatlari | 4 yil | 7 yil |
| **4.** | Foiz stavkalari (kupon) | 6,625-6,875%* | 7,125-7,375%* |
| **5.** | Xalqaro obligatsiyalarning nominal qiymati | 200 000 AQSh dollari | 200 000 AQSh dollari |
| **6.** | Foizlarni to‘lash muddati | Yarim yillik to‘lovlar asosida | |
| **7.** | Asosiy summaning to‘lanishi | Muomala muddatining oxirida bir martalik to‘lov bilan qaytariladi | |
| **8.** | Anderrayterlar soni va nomi | Jami 7 ta, shu jumladan: | |

| | | |
|---|---|---|
| | | Citi Bank, Societe Generale, JP Morgan, Deutsche Bank Aktiengesellschaft, ICBC Standard Bank Plc, MUFG Securities Emea Plc, Raiffeisen Bank International AG |
| **9.** | Emissiya formati | 144A/Reg S yoki Reg S formatida |
| **10.** | Boshqa shartlar | Xalqaro obligatsiyalarni xalqaro kapital bozorida chiqarish qoidalariga muvofiq chiqariladi. |

**- Emissiya muddatidagi kapital bozori kon'yunkturasidan kelib chiqib, hamda belgilangan koʻrsatkichdan 0,75 foizdan oshmagan holda.*

1.2. Xalqaro obligatsiyalar emissiyasi (chiqarish) va ularni joylashtirish doirasidagi imzolanishi kutilayotgan quyidagi bitimlar ("**Tranzaksiya Hujjatlari**") loyihalari ma'lumot uchun qabul qilinsin:

– "NKMK" AJ, BNY Mellon Corporate Trustee Services Limited, The Bank of New York Mellon, London Branch va boshqalar oʻrtalarida imzolanishi kutilayotgan Toʻlov Agenti shartnomasi ("Paying Agency Agreement") (6-ilova);

– "NKMK" AJ, Deutsche Bank Aktiengesellschaft, ICBC Standard Bank Plc, MUFG Securities Emea Plc va Raiffeisen Bank International AG va boshqalar oʻrtalarida imzolanishi kutilayotgan Obuna shartnomasi ("Subscription Agreement") (7-ilova);

– "NKMK" AJ va BNY Mellon Corporate Trustee Services Limited oʻrtalarida imzolanishi kutilayotgan Trast (ishonch) shartnomasi ("Trust Deed") (8-ilova).

1.3. "NKMK" AJ Boshqaruv raisi-Bosh direktor (Sanaqulov) xalqaro obligatsiyalar boʻyicha foiz toʻlovlarini oʻz vaqtida toʻliq miqdorda amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida har yarim yillikda pul mablagʻlarini zaxiralashni ta'minlasin.

2

2.1. Jamiyat Bosh direktorining iqtisod va moliya boʻyicha oʻrinbosari – J.T. Xasanov va Markazlashtirilgan buxgalteriya xizmati bosh hisobchisi – J.V. Novikova "NKMK" AJ nomidan xalqaro obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish bilan bogʻliq boʻlgan barcha hujjatlarni, shu jumladan Tranzaksiya xujjatlarini imzolash va har qanday harakatlarni bajarish, shu jumladan, Tranzaksiya xujjatlarini tegishli organ va idoralarda, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy Bankida roʻyxatga qoʻyish vakolati berilsin.

2.2. Jamiyat Boshqaruv raisi – Bosh direktor (Sanaqulov) mazkur bayonnoma ijrosini ta'minlashga mas'ul etib belgilansin.

Aksiyadorlik jamiyatining ijroiya organi, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a'zolari foydasiga haq va (yoki) kompensatsiyalar hisoblanmagan.

Kuzatuv kengashi a'zolari saylanmagan.

Ustavga oʻzgartirish va (yoki) qoʻshimchalar kiritilmagan.

"NKMK" AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktor — Q.S. Sanaqulov

Bosh buxgalter: — J.V. Novikova

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxsning F.I.Sh.: — S.N. Murtazayev